

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

MAKSUMOVA MAXFUZA SHAROF QIZI

**INTEGRATIV RIVOJLANTIRUVCHI YONDASHUV ASOSIDA
BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI
TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI
(iqtisodiyot ta’lim yo‘nalishlari misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)ndissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (Phd) по
педагогическим наукам**

**Sontenus of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) he was a
pedagogical sciences**

Maksumova Maxfuza Sharof qizi

Integrativ rivojlantiruvchi yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyasi (iqtisodiyot ta’lim yo‘nalishlari misolida)..... 3

Максумова Махфуза Шароф кизи

Технология совершенствования профессиональной подготовки будущих специалистов на основе интегративного развивающего подхода (на примере направления образования экономика)..... 25

Maksumova Makhfuza Sharof kizi

Technology for improving the professional training of future specialists on the basis of an integrative developing approach (on the example of the field of education economics)..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 53

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

MAKSUMOVA MAXFUZA SHAROF QIZI

**INTEGRATIV RIVOJLANTIRUVCHI YONDASHUV ASOSIDA
BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI
TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI
(iqtisodiyot ta’lim yo‘nalishlari misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Ped3880 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning web-sahifasida (www.tseu.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www. tseu.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xakimova Muxabbat Fayziyevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Medetova Raushan Mamadiyarovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Abdullayeva Nafisa Shavkatovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02-raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil «___» _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel.: (+99871) 239-01-49, faks: (+99871) 239-41-23; e-mail: tdiu@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel.: (+99871) 239-01-49, faks: (+99871) 239-41-23; e-mail: tdiu@tseu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “___” _____dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi).

G.Q. Abduraxmanova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

O.D. Djurabayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

Sh.A. Allayorov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kechayotgan globallashuv va ta'lim integratsiyalashuvi jarayonida iqtisodiyot yo'nalishi talabalarining kasbiy-ijtimoiy tayyorgarligini rivojlantirishning kreativ-modulli texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini belgilovchi holatlarni aniqlash, bitiruvchining kasbiy kompetentlik jihatlarini muhim sifatlar qatoriga kiritish, integrativ rivojlantiruvchi yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatga tayyorlash holatini o'rganish, pedagogik tashxislashning innovatsion metodlarini takomillashtirish va ulardan unumli, samarali foydalanish hamda amaliyotga joriy etish bo'yicha tizimli amaliy ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida iqtisodiyot yo'nalishi bitiruvchilarining raqobatbardoshligini oshirish, innovatsion faoliyatning pedagogik imkonini ta'minlovchi omillarni rivojlantirish, integratsion ta'lim jarayonini loyihalashtirishning zamonaviy metodik ta'minotini yaratish, integrativ rivojlantiruvchi yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarda kasbiy faoliyat sohalariga yo'naltirilgan qobiliyatlarni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Kasbiy ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, kompetensiyalarga asoslangan innovatsion ta'lim muhitini shakllantirish, interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish, talabalarda kasbiy kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlariga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda integrativ rivojlantiruvchi yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatga tayyorlash, kreativ salohiyatini oshirish, kasbiy-ijodiy, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish o'quv reja, dastur va adabiyotlarni yaratish tizimini yanada takomillashtirishning huquqiy-me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlarni tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish"¹ ustuvor vazifa etib belgilangan. Natijada, kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari kengayadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2022-yil 1-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida"gi farmonlari va 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmoni.

o'shirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyatni va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini iqtisodiyotni shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. R.X.Djurayev, U.I.Inoyatov, Z.K.Ismailova, R.G.Isyanov, Q.T.Olimov, O.X.To'raqulov, M.B.Urazova, J.A.Xamidov, D.O.Ximmataliyev, A.R.Xodjabayev, Sh.S.Sharipov, O.A.Qo'ysinovlar²ning tadqiqotlarida ta'lim sifatini oshirishni rejalashtirish va nazorat qilish, ijodiy tafakkurni shakllantirish, bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlash muammolari va ijodkorlik mazmuni, B.S.Abdullayeva, Sh.Abduraimov, S.Yu.Ashurova, U.Sh.Begimqulov, R.A.Mavlonova, U.A.Masharipova, N.A.Muslimov, Sh.E.Qurbanovlar³ tomonidan ta'lim jarayonidagi integratsiyaning psixologik-pedagogik, metodik muammolari, zamonaviy o'qitish texnologiyalari nazariyasi va amaliyoti bo'yicha L.V.Golish, U.Nishonaliyev, N.Sayidaxmedov, O'.Q.Tolipov va B.N.Farberman; ta'lim jarayonida pedagogik va axborot

² Djurayev R.X. Pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2004. – 188 b.; Исянов Р.Г. Кластерный подход в формировании модульной компетентности преподавателей высших образовательных учреждений. – Т., 2014. – 69 б.; Inoyatov U.I. Zamonaviy ta'lim muammolari va innovatsion yondashuvlar // Oliy ta'lim muassasalari ilmiy to'plami. – T., 2019. – 2-son. – B. 45-50; Ismailova Z.K. Talabalarning kasbiy pedagogik malakalarini shakllantirish: Ped. fanl. nomz. ... Dis. – T., 2000. – 186 b.; Xodjabayev A.R. Ta'limda nazorat va baholash tizimini takomillashtirish. – T.: Fan, 2017. – 144 b.; Urazova M.B. Совершенствование технологии подготовки будущего педагога профессионального образования к проектировочной деятельности: Автореф. дис. ... д-ра пед. наук. –Т., 2015. – 45 с.; Ismadiyarov Ya. Ijodiy tafakkurni shakllantirishda ta'limiy jarayonning ahamiyati // Pedagogika va psixologiya. – T., 2020. – 3-son. – B. 32-36; Sharipov Sh.S. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyiligi ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti: Ped. fanl. d-ri ... Dis. – T., 2012. – 307 b.; Olimov Q.T. O'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish // Yosh olim. – T., 2021. – 1-son. – B. 27-30; Hamidov J.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo'llash texnologiyasi: Ped. fanl. d-ri ... Dis. – T., 2017. – 304 b.; To'raqulov U.X. Bo'lajak o'qituvchilarning intellektual faoliyatni tashkil etishga tayyorgarligini takomillashtirish: Ped. fanl. bo'yicha fals.d-ri ... Dis. – T., 2020; Ximmataliyev D.O., Muqimov B.R. Ta'limda axborot texnologiyalari fanidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish: Uslubiy ko'rsatma. – T.: TIMI, 2015. – 90-b.; Qo'ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik jodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: Ped. fanl. d-ri (DSC) ... Dis. – T., 2019. – 223 b.

³ Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlardagi akademik litseylarda matematika o'qitish misolida): Ped. fanl. d-ri ... dis. Avtoref. – T., 2006. – 49 b.; Ashurova S.Yu., Numonova A. The role of psychology in forming teachers' pedagogical ability // Modern Journal of social sciences and theory. – 2023. – Vol. 2. – No. 11. – P. 46-53: <https://mjstjournal.com/index.php/icms/article/view/1221>; Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Ped. fanl. d-ri ... Dis. – T., 2007; Muslimov N.A va boshq. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari: O'quv-metodik qo'llanma. – T.: Sano-standart, 2015. – 120 b.; Mavlonova R.A. Pedagogik innovatsiyalar va integratsiya asoslari // Ta'lim va taraqqiyot tahlili. – T., 2022. – 3-son. – B. 75-80; Masharipova U.A. Psixologik-pedagogik yondashuv asosida kasbiy kompetensiyani shakllantirish // Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T., 2023. – 2-son. – B. 33-38; Qurbanov Sh.E. Kasbiy tayyorgarlikda ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik omillari // Pedagogika va psixologiya muammolari. – T., 2022. – 4-son. – B. 41-45.

texnologiyalaridan foydalanish A.A.Abduqodirov, F.M.Zakirova va S.S.G'ulomovlar fundamental ilmiy tadqiqotlar olib borishgan⁴.

O'qituvchining metodologik madaniyati, kasbiy fikrlashi, metodik refleksiyasini shakllantirish va integratsiya muammolari V.S.Bezrukova, K.E.Bezukladnikov, N.I.Vyunova, I.A.Zimnyaya, V.Kraevskiy, A.V.Malev, S.D.Smirnovlar ilmiy tadqiqot olib borishgan⁵.

Xorijiy olimlardan o'qitishni integrativ mazmundagi bilimlar asosida tashkil etish masalalari R.Dyson, D.Harrison, S.Hoare, O.Lopez-Fernandez, T.March, A.Maslou, A.Morales, B.Nortx, C.Palmer, K.Rodjers, S.L.Rubinshteyn, V.Tomlinson, J.Trim va S.Sippellar tomonidan tadqiq qilingan⁶.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Jizzax politexnika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining OT-F1-049 raqamli "Talabalarda assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" mavzusidagi grant loyihasi doirasida bajarilgan (2019-2023).

⁴ Golish L.V. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv uslubiy qo'llanma // Innovatsion ta'lim texnologiyasi seriyasi. – T.: Iqtisodiyot, 2012. – 154 b.; Muslimov N.A va boshq. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari: O'quv-metodik qo'llanma. – T.: Sano-standart, 2015. – 120 b.; Нишоналиев У. Формирование личности учителя трудового обучения: проблемы и перспективы. – Т.: Фан, 1990. – С. 88; Sayidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – T.: Moliya, 2003. – 146 b.; Tolipov O'.Q., Barakaev M. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: Fan va texnologiya, 2006. – 182 b., Farberman B.N. Pedagogik texnologiyalar tizimi va uni tatbiq etish metodikasi. – T., 2001. – 95 b., Abduqodirov A.A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar: amaliy tavsiyalar. – T.: Iste'dod, 2008. – 120 b.; Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Ped. fanl. d-ri ... Dis. – T., 2007; Закирова Ф.М. Теоретические и практические основы методической подготовки будущих преподавателей информатики в педагогических вузах: Автореф. дис. ... д-ра пед. наук. – Т., 2009. – 39 с., G'ulomov S.S., Abduqodirov A.A. va boshq. Elektr tarmoqlari va tizimlari fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish: Ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. – F., 2023. – B. 60-65.

⁵ Безрукова В.С. Педагогика: проектная деятельность: Учебное пособие. – Е.: УрГПУ, 1996. – 256 с. Безукладников К.Э. Формирование методологической культуры педагога в условиях модернизации образования // Вестник Томского государственного педагогического университета. – Т., 2015. – № 3. – С. 45-50; Вьюнова Н.И. Интегративный подход к формированию методологической культуры учителя // Современные проблемы науки и образования. – М., 2018. – № 2. – С. 60-65; Зимняя И.А., Земцова Е.В. Интегративный подход к оценке единой социальной социально-профессиональной компетентности выпускников вузов // Высшее образование сегодня. – М., 2008. – № 5. – С. 14-19; Краевский В.В. Методология педагогики: теория и практика. – М.: Академия, 2006. – 320 с.; Малев А.В. Рефлексивный подход к развитию профессионального мышления учителя // Педагогика и психология образования. – М., 2017. – № 4. – С. 70-75; Смирнов С.Д. Педагогика и психология высшего образования: от деятельности к личности. – М.: Аспект-Пресс, 1995. – 271 с.

⁶ North, B. The CEFR in practice. – С.: CUP, 2014. – 289 p.; Trim, J., North, B. The CEFR in practice. – С.: CUP, 2014. – 264 p.; March, T. The learning power of web quests // Educational leadership, 2003, Vol. 61(4). – P. 42-47; Tomlinson, C.A. The differentiated classroom: responding to the needs of all learners. – A., VA: Association for supervision and curriculum development, 1999. – 197 p. Ushbu asarda tomlinson turli darajadagi o'quvchilar ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'limni tashkil etish usullarini bayon etadi; Maslow A.H. Motivation and personality. – New York: Harper & row, 1954. – 411 p.; Rogers, C.R. Freedom to learn. – С., ОН: Merrill, 1969. – 358 p.; Рубинштейн С.Л. Общие основы психологии. – М.: Педагогика, 1989. – 704 с.; Integrative approaches in teacher professional development // Issues in Educational Research, 2016, Vol. 26(3), pp. 415-432; Dyson, R., Harrison, D., Hoare, S. Curriculum Integration and Interdisciplinary teaching in practice // Journal of Curriculum studies, 2015, Vol. 47(5). – P. 692-715; Lopez-Fernandez, O., Morales, A. Integrative approaches in teacher professional development // Issues in educational research, 2016, Vol. 26(3). – P. 415-432; Palmer P.J. To know as we are known: education as a spiritual journey. – San Francisco: Harper & Row, 1983. – 128 p.; Sippell, S. Integrated learning environments and student engagement // Contemporary educational psychology, 2018, Vol. 54. – P. 200-213.

Tadqiqotning maqsadi – integrativ rivojlantiruvchi yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyalari bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

bo‘lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

integrativ rivojlantiruvchi yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyasini takomillashtirish;

integrativ rivojlantiruvchi yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatini takomillashtirish texnologiyalarining samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida integrativ rivojlantiruvchi yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi texnologiyalarini takomillashtirish jarayoni belgilanib, unda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Farg‘ona davlat universiteti, Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institutidan 475 nafar talabalar respondentlar sifatida qatnashgan.

Tadqiqotning predmetini integrativ rivojlantiruvchi yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi texnologiyalarini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida mavzuga oid pedagogik va ilmiy-metodik manbalar, didaktik materiallar, o‘quv reja va dasturlar, o‘quv-me‘yoriy hujjatlar, darslik va o‘quv-metodik adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, suhbat, kuzatish, anketa so‘rovi, test, modellashtirish, ekspert baholash, pedagogik tajriba, tadqiqot natijalarini matematik-statistik qayta ishlash metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish modeli pedagogik moslashish jarayonida biznes-simulyatorlarni ta‘limga iqtisodiy resurslar va bozor talablari asosida integratsiyalash hamda ijodiy, faoliyatli o‘qitish texnologiyalarini qayta uyg‘unlashtirish ko‘rsatkichlarini diagnostik loyihalash asosida takomillashtirilgan;

bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatli texnologiyasi improvizatsiya bosqichlari va ta‘lim jarayoni qiymat zanjiri bosqichlarida investitsiyaviy mexanizmlarini tatbiq etish hamda ta‘lim sifatini monitoringi va inson kapitali salohiyatini uyg‘unlashtirish asosida takomillashtirilgan;

bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyalari samaradorligi kognitiv faollikni rag‘batlantirish, bozor o‘zgarishlariga adaptatsiya qilish qobiliyatini shakllantirish va ta‘lim subyektlarining shaxsiy, ijtimoiy hamda shaxslararo munosabatlarini iqtisodiy muvozanat mezonlari va mehnat bozoridagi talab-taklif mutanosibligi asosida takomillashtirilgan;

bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligining didaktik imkoniyatlari adaptiv muhitning refleksiv komponentlarini mehnat bozori tendensiyalariga va ularning iqtisodiy samaradorligiga muvofiq yaxlitlashtirish asosida aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalari "Iqtisodiyot" yo'nalishlari o'quv rejalaridagi umumkasbiy fanlari blokiga kiruvchi "Innovatsion pedagogika", "Kasbiy psixologiya", "Kasbiy pedagogika" fanlaridan bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatga tayyorlash va pedagogik moslashishini tashkil etishga qaratilgan talablar va o'qituvchilarga mo'ljallangan o'quv-didaktik ta'minot, axborot ta'minoti, fanlar bo'yicha axborotlar bazasi hamda mustaqil ta'lim mazmunini integratsiyalash asosida o'quv jarayoniga moslashishining tashkiliy pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishga oid o'quv uslubiy majmualar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

"Pedagogik menejment" nomli o'quv qo'llanma nashr etilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2024-yil 24-iyundagi 190-son buyurug'iga asosan 190-15-raqam bilan ro'yxatga olingan).

Tadqiqot natijalarining ishonchligi foydalanilgan yondashuvlar, usullar va texnologiyalar ilmiy-metodik asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarni ilmiy manbalardan olinganligi, tajriba-sinov ishlari natijalarining samaradorligi matematik-statistik tahlil vositasida aniqlanganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, integrativ rivojlantiruvchi yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatga bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatini takomillashtirishning nazariy asoslari o'qituvchilarning muvaffaqiyatli faoliyati bilan bog'liq o'qitishning dolzarb muammolarini hal qilish uchun konseptual ahamiyatga ega bo'lgan integrativ rivojlantiruvchi yondashuv tamoyillari asosida ishlab chiqilganligi bilan bog'liq va zamonaviy oliy ta'lim sharoitida bu nazariya talabalarning ijodiy mustaqilligiga hissa qo'shadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, integrativ rivojlantiruvchi yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatini takomillashtirishning umumlashtirilgan tajribasi, shuningdek, nazariy va eksperimental tadqiqotlar natijalari amaliyotga tatbiq etilganda, ta'lim muassasalarida o'qituvchilar faoliyatini takomillashtirish samaradorligini oshirishga imkon berishi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalaridan o'quv-tarbiya jarayonida talabalarning oliy ta'lim muassasalariga pedagogik moslashishini tahlil qilishda, shuningdek, oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'quv-tarbiya jarayonida adaptiv qobiliyatlarni baholash komponentlari, ko'rsatkichlari va darajalarini aniqlash hamda ularni o'quv jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Integrativ rivojlantiruvchi yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari adaptiv muhitning motivatsion, kognitiv, kommunikativ, baholovchi va refleksiv komponentlarini yaxlitlangan holda pedagogik birliklarni shaxsiy-faoliyatli yondashuvlarga ustuvorlik berish orqali aniqlashga oid tavsiyalar

“Ta’lim boshqaruvidagi so‘nggi o‘zgarishlar” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan. “Ta’lim boshqaruvidagi so‘nggi o‘zgarishlar” nomli o‘quv qo‘llanma nashr etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 21-sentabrdagi 02/01-01-128-raqamli guvohnoma). Natijada, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish metodlari va texnologiyalardan foydalanib o‘quv faoliyatini sifat jihatdan takomillashtirish imkoniyati yaratilgan;

bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish modelini pedagogik moslashish jarayonida kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlik hamda ijodiy, faoliyatli va refleksiv komponentlarining shakllanganlik darajasi mezonlari va ko‘rsatkichlarini diagnostik loyihalash asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar “Pedagogik menejment” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2024-yil 24-iyundagi 190-sonli buyrug‘iga asosan o‘quv adabiyotining nashr ruxsatnomasi). Natijada, talabalarni oliy ta’lim muassasasi o‘quv jarayoniga pedagogik moslashishining ijtimoiy, psixologik va pedagogik omillari kengaytirilgan;

integrativ rivojlantiruvchi yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatli takomillashtirish improvizatsiya bosqichlari va tarkibiy qismlarini aniqlash, nostandart vaziyatlarni xal etish hamda bashorat qiluvchi komponentlarni axloqiy-gumanistik va tashkiliy-uslubiy funksiyalarni uyg‘unlashtirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar asosida “Xulq-atvor iqtisodiyoti” fani bo‘yicha multimediyali elektron o‘quv qo‘llanma ishlab chiqilgan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2023-yil 23-maydagi DGU 25818-sonli guvohnomasi). Natijada, integrativ rivojlantiruvchi yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatini takomillashtirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

integrativ rivojlantiruvchi yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyalari samaradorligi jamiyat va davlat talablari va o‘qituvchilarning ijtimoiy-madaniy qobiliyatining eng yuqori darajasiga erishishga olib keladigan kasbiy muhim, shaxsiy va ijtimoiy fazilatlarini hamda shaxslararo munosabatlar va ta’lim subyektlarining subyektiv pozitsiyalarini inobatga olish asosida aniqlashga oid tavsiyalar “Ta’lim boshqaruvidagi so‘nggi o‘zgarishlar” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2023-yil 26-iyundagi 211-sonli buyrug‘iga asosan o‘quv adabiyotining nashr ruxsatnomasi). Natijada, integrativ rivojlantiruvchi yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatini takomillashtirish samaradorligini oshirish tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 9 ta ilmiy ishlar chop etilgan. Shulardan, 5 tasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan respublika jurnallarida 3 ta, xorijiy jurnallarda 2 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalangan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 140 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan hamda ilmiy-amaliy ahamiyati, natijalarning ishonchligi, amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi masalalari o'z aksini topgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Integrativ rivojlantiruvchi yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlanib, unda bo'lajak mutaxassisni kasbiy tayyorlashning nazariy asosi sifatida integrativ yondashuvning mohiyati, integrativ rivojlantiruvchi yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlashni ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning nazariy va uslubiy mazmun-mohiyati bayon qilingan.

Integrativ yondashuvning asosi bo'lgan ta'lim integratsiyasi ta'lim mazmunining turli tarkibiy qismlari, ta'lim sohalari va muassasalari, shuningdek, o'quv jarayoni subyektlarining yaqinlashuvi va birlashuvi jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. Integratsiya – bu axborot, bilim, fanlar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatishning umumiy va ko'p qirrali jarayoni, shuningdek, ularning yaxlitligi va dialektik birlikda barcha tarkibiy qismlarni qamrab oluvchi yagona tuzilmani ta'minlashdir.

Umumiy ilmiy hodisa sifatida integratsiya tushunchasining mazmuni haqida batafsilroq to'xtalamiz. “Integratsiya” fransuzchada – qo'shilish, ishtirok etish; lotinchada – tiklash, to'ldirish degan ma'nolarni anglatadi. XVII asrda Ya.Bernulli (1654-1705) matematikaga “integral” atamasini kiritdi va keyinchalik “integratsiya” tushunchasi bir qator gumanitar fanlar: falsafa, sotsiologiya, psixologiya, pedagogika va boshqalarda qo'llanila boshlandi. Shuning uchun integratsiyani murakkab fanlararo ilmiy tushuncha sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Turli nuqtayi nazarlarni umumlashtirib, shunday xulosaga kelish mumkinki, falsafiy nuqtayi nazardan “integratsiya” turli xil elementlar va qismlarning bir butunga birlashish bilan bog'liq bo'lgan rivojlanish jarayoni sifatida tushuniladi; sotsiologik nuqtayi nazardan – bu rivojlanuvchi tomonlarning biriga oldindan o'rnatilgan tizim doirasida mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan ilgari bir xil bo'lmagan qismlarga yoki elementlarga birlashtirish bilan bog'liq jarayon, bu holda uning yaxlitligi va tashkil etilish darajasi oshadi yoki yangi tizim ilgari bog'liq bo'lmagan elementlardan tashkil topganda paydo bo'ladi; psixologik nuqtayi nazardan – bu qismlar shaxsiy darajada bir butunga bog'langan jarayondir.

Integratsiya tushunchasini tavsiflash uchun olimlar “tizim”, “izchillik”, “bog‘lanishlar”, “sintez”, “yaxlitlik”, “elementlar”, “komponentlar”, “qismlar” kabi atamalaridan foydalanadilar. Qayd etilgan xususiyatlar ko‘p qirrali hodisalar bo‘lib, ularning barcha tomonlarini bir tadqiqot doirasida ochib berish mumkin emas.

Integratsiyaning pedagogik mohiyati N.K.Chapayev asarlarida chuqur ochib berilgan bo‘lib, uni integrativ pedagogik faoliyat sharoitida ko‘p o‘lchovli inson yaxlitligining rivojlanishi va shakllanishi jarayoni va natijasi, deb hisoblaydi. I.A.Larionova, N.K.Chapayev integratsiyalashgan pedagogik faoliyatni pedagogik faoliyatning o‘ziga xos turi sifatida belgilaydilar, uning davomida ta‘lim nazariyasi va amaliyotining muayyan integral vazifalari amalga oshiriladi (bilish predmetini kengaytirish, fikrlash konsepsiyasi va sxolastikasini rivojlantirish, shaxs subyektivligini shakllantirish, moslashuvchan ko‘p bosqichli kasbiy ta‘limni tashkil etish va h.k.). Ye.V.Yakovlev va N.O.Yakovleva pedagogik integratsiyani maqsadlar, tamoyillar, tarkib, tashkil etish shakllari birligini ifodalashning eng yuqori shakli, o‘quv jarayonining turli tarkibiy qismlarining o‘zaro bog‘liqligi asosida kengaytirilgan pedagogik birliklarni yaratish, deb hisoblashadi.

Tadqiqotchi A.Yu.Danilyuk ta‘kidlaganidek, integratsiya “pedagogikada ilmiy ongning murakkab dialektik o‘zgarishlari mahsuli bo‘lib, ba‘zi bir siyosiy intilishlarga bo‘ysunmaydi, balki jahon madaniyati yutuqlarini va ba‘zan mahalliy ta‘limni rivojlantirishning dramatik tajribasini singdiradi”.

Pedagog olim N.A.Muslimov bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchisida kasbiy-pedagogik sifatlarni shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini tadqiq etib, mutaxassislarning yangi avlodini shakllantirishda, ma‘naviy-axloqiy tomondan yetuk, mustaqil dunyoqarashga ega bo‘lgan, ijodiy fikrlovchi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatli barkamol shaxsni tarbiyalab, uni voyaga yetkazish masalalariga alohida e‘tibor qaratgan. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy shakllantirishning nazariy masalalari, kreativlik pedagogik ijodkorlikning o‘ziga xos ko‘rinishi ekanligi professor N.N.Azizxodjayevaning tadqiqotlarida ham ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Masalan, Z.Raximov tomonidan bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchilarining ijodkorligini rivojlantirishning didaktik xususiyatlari o‘rganilgan.

A.Jo‘rayev tomonidan dasturlashtirilgan ta‘lim vositalari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish, oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak kasbiy fanlar o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini tanqidiy va tizimli tahlil qilish, kompetensiyaviy yondashuv asosida bo‘lajak kasbiy fanlar o‘qituvchilarini tayyorlash modelini takomillashtirish va samaradorligini tajriba-sinov jarayonida amaliyotda qo‘llash orqali aniqlash masalalari o‘rganilgan.

D.O.Himmataliyev tomonidan kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi muammolari o‘rganilgan.

Shuningdek, bo‘lajak mutaxassislarning shaxsiy va kasbiy muhim sifatlarini shakllantirish bosqichlarini klassifikatsiyalash asosida nazariy, amaliy, ilmiy-

tadqiqot tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha mobillik, refleksivlik, integrativlik kabi kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmi takomillashtirilgan.

Falsafiy va psixologik-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish asosida xulosa qilish mumkinki, talabalarni ilmiy g'oyalarning keng qamrovli, murakkab, dialektik o'zaro bog'liq yaxlit tizimida shakllantirish uchun ta'limdagi integratsiya jarayoni turli xil o'quv fanlari mazmunining o'zaro ta'siri, o'zaro bog'liqligi va o'zaro aloqasi, moddiy dunyoning yoki ijtimoiy hayotning muayyan hodisalari, tomonlari va xususiyatlari o'quv fanining mavzusini tashkil etuvchi yaxlit jarayon sifatida qaralishi kerak.

Integrativ yondashuvning mohiyatini, oliy ta'lim integratsiyasi nazariyasining asoslarini tahlil qilish oliy kasbiy ta'limda integrativ rivojlantiruvchi yondashuv tuzilishini aniqlashga va quyidagi darajalarni aniqlashga imkon beradi: fanlararo va shaxslararo integratsiya. Binobarin, integrativ rivojlantiruvchi yondashuv nuqtayi nazaridan ta'lim pedagogik integratsiya jarayoni va natijasi sifatida qaraladi (fanlararo va shaxslararo). Integrativ rivojlantiruvchi yondashuv bo'lajak mutaxassislarda fanlarning ilmiy mazmuni va turli xil o'quv texnologiyalaridan keng foydalanish uchun uslubiy vosita sifatida foydalanish qobiliyatini shakllantirish, o'quv kurslarining turli bo'limlari va umuman turli mavzular o'rtasidagi aloqalar: fanlararo va fanlar ichidagi integratsiya; ularning kasbiy faoliyatlarini aniqlash va shaxsan muhim hayotiy qadriyatlarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Integrativ rivojlantiruvchi yondashuv yordamida bilimlarni bir ilmiy intizomdan boshqasiga o'tkazish tufayli turli fanlarning o'zaro boyishi va rivojlanishi sodir bo'ladi. Bu, albatta, uning kuchli nuqtasi sanaladi.

Ushbu yondashuvni amalga oshirish to'rtta asosiy darajadagi integral jarayonlarni amalga oshirishni o'z ichiga oladi:

fanlararo integratsiya – kasbiy faoliyatning mohiyatini yaxlit anglash, tushunishni va uni amalga oshirishga tayyorligini ta'minlaydigan turli fanlarning asosiy g'oyalari, tamoyillari va mazmunining o'zaro bog'liqligi va o'zaro aloqadorligi;

xuddi shu intizom bo'limlari o'rtasida semantik, mazmunli, tarkibiy va texnologik aloqalarni o'rnatishga qaratilgan *fanlar ichidagi integratsiya*. Ushbu turdagi integratsiya tizimni tashkil etuvchi aloqalarni, shuningdek, nazariya va amaliyot o'rtasidagi aloqalarni aniqlashga imkon beradi;

shaxslararo integratsiya – kasbiy faoliyatning mohiyatini yaxlit anglash, tushunish va uni amalga oshirishga tayyorligini ta'minlaydigan turli fanlarning asosiy g'oyalari, tamoyillari va mazmunining o'zaro bog'liqligi va o'zaro hamkorligi;

yutuqlarni o'rganish va yangi shaxsiy tajribani shakllantirishni ta'minlaydigan *shaxslar ichidagi integratsiya*, bu refleksiv tayyorlik va kasbiy fikrlashni shakllantirishda ifodalanadi (1-jadval).

Oliy ta'limda integrativ rivojlantiruvchi yondashuvning tuzilishi⁷

Integratsiya darajalari	Integratsiya asoslari	Integratsiya natijalari
Fanlararo integratsiya	Fan va madaniyatning turli sohalarining o'zaro bog'liqligi va o'zaro hamkorligi	Kasbiy dunyoqarashni shakllantirish
Fanlar ichidagi integratsiya	O'quv fani differensial va integral tizim sifatida	Bo'lajak mutaxassisning muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatga nazariy va uslubiy tayyorgarligi
Shaxslararo integratsiya	Biznes hamkorlik va birgalikda yaratish	Kasbiy faoliyatga tashkiliy va kommunikativ tayyorlik
Shaxslar ichidagi integratsiya	Integrativ inson tabiati, kasbiy va shaxsiy rivojlanishning yaxlitligi	Kasbiy bilimlarni ongga singdirish

Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatini takomillashtirishga yordam beradigan tanlangan usullar, vositalar va shakllarning samaradorligini tekshirish eksperiment o'tkazish orqali amalga oshiriladi, bu tadqiqotning har bir bosqichida biz ilgari surgan nazariy takliflarni tasdiqlash, rad etish yoki aniqlashtirishga imkon beradi.

Shunday qilib, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatini takomillashtirish muammosini hal qilishda shaxsiy-faoliyatli yondashuvning asosiy qoidalarini quyidagicha shakllantirishimiz mumkin:

1) ta'limda shaxsiy-faoliyatli yondashuvning asosiy g'oyasi shaxsning subyektivligini shakllantirish va rivojlantirish vositasi sifatida faoliyat bilan bog'liq bo'lib, uning o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini anglash ehtiyojlarini qondiradi;

2) o'z-o'zini tartibga soluvchi subyekt sifatida harakat qiladigan shaxs, shunga ko'ra, shaxsiy-faoliyatli yondashuv sharoitida ta'lim samaradorligining ajralmas sharti bu o'z kuchiga, uning rivojlanishining ichki mantig'iga tayanishdir;

3) shaxsiy-faoliyatli yondashuv nuqtayi nazaridan oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayoni talabaning hayot faoliyatini butun yaxlitligi, ko'p qirraliligi va uyg'unligida ochib berishga imkon beradigan va shu bilan uning shaxsini shakllantirish uchun sharoit yaratadigan o'quv faoliyatining vaziyatlarini loyihalashtirish, qurish va yaratish zarurligidan kelib chiqadi.

Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatini takomillashtirishni tadqiq qilish va loyihalashtirishga integrativ rivojlantiruvchi yondashuv uning uslubiy asoslarini ochib beradi. Falsafiy darajada u insonning ajralmas mohiyati, uning ijtimoiy va shaxsiy muammolarni hal qilishdagi roli, tabiiy, ijtimoiy va ma'naviy yaxlitlik g'oyalaridan iborat. Qarama-qarshiliklarning birligi va kurashi qonunlari, miqdoriy o'zgarishlarning sifatga o'tishi, obyektivlik, determinizm, rivojlanish, izchillik, o'zaro hamkorlik tamoyillari ta'lim makonining bir qismi sifatida oliy ta'limni modernizatsiya qilish jarayonining dialektikasini ochib berishga imkon beradi. Qarama-qarshiliklarni, miqdoriy va sifatning o'zaro bog'liqligini aniqlash ushbu jarayondagi o'zgarishlar; faoliyatning barcha turlarining tashkiliy va psixologik

⁷ Muallif izlanishlari natijasida shakllantirilgan.

qonuniyatlarini hisobga olgan holda yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda oliy ta'lim subyektlarining rivojlanish qonuniyatlarini o'rganishga sharoit yaratadi.

Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatini takomillashtirishni tashkil etish muammolarini o'rganishda eng muhim uslubiy qoidalar sifatida pedagogik jarayonning quyidagi shakllari ta'kidlangan: har tomonlama, uyg'un rivojlangan shaxsni shakllantirishda pedagogik jarayonning jamiyat ehtiyojlari va imkoniyatlari bilan shartliligi; ta'lim-tarbiya va rivojlanish jarayonlarining integratsiyasi; oliy ta'lim faoliyati samaradorligining uning integral tizimining barcha subyektlari harakatlarining uyg'unligiga bog'liqligi; oliy ta'lim tizimining barcha tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liqligi, tegishli natijalarga erishishni ta'minlash. Ushbu vazifalar oliy ta'lim tizimining ijtimoiy muhitga bog'liqligi bilan bog'liq va shuning uchun uning faoliyati va rivojlanishining ijtimoiy-pedagogik shartlarining bir qismi hisoblanadi.

Dissertatsiyaning "**Integrativ rivojlantiruvchi yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi**" deb nomlangan ikkinchi bobida integrativ rivojlantiruvchi yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning zamonaviy tuzilishi, bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorligi tuzilmasi va tarkibiy modeli, integrativ rivojlantiruvchi yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatini rivojlantirish modelini amalga oshirish texnologiyasi kabilar bayon qilingan.

Ta'lim amaliyotiga qobiliyat yondashuvini joriy etish kasbiy faoliyatining komponentlarini rivojlantirish uchun yetarli bo'lgan maxsus tashkiliy shakllarni izlashni talab qiladi.


Komponent (lotincha *componens*) – biror narsaning ajralmas qismi. Bo'lajak mutaxassis – talabning kasbiy faoliyatini rivojlantirish modelini aniqroq qurish uchun biz quyidagi integrativ komponentlarni ta'kidlaymiz: kognitiv, faoliyatli, hissiy-shaxsiy, motivatsion (1-rasm), bu bizning fikrimizcha, bo'lajak mutaxassis kasbiy faoliyatining mazmunini to'liq aks ettiradi.

Kognitiv komponent – kasbiy madaniyatni rivojlantirish va mutaxassislik muhitining kasbiy yo'nalishini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, o'quv jarayoni bo'yicha asosiy umumiy kasbiy va maxsus bilimlarni sintez qilishni ta'minlaydi. Kognitiv komponent talabalarning o'quv tizimini va kasbiy bilimlarni, ya'ni o'quv tizimi tarkibi, funksiyalari va imkoniyatlari, uning me'yoriy asoslari va boshqalarni o'zlashtirishni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, o'quv tizimi va kasbiy bilimlar tizimi ta'lim va kasbiy bilimlarning o'zaro bog'liq elementlarining yaxlitligi sifatida tushuniladi, ular yangi integrativ bilimlarni shakllantirishga qodir va standart va nostandart ta'lim va kasbiy vaziyatlarda yetarli harakat qilishga imkon beradi. Kognitiv komponent quyidagi asosiy qobiliyatlarni o'z ichiga oladi: bo'lajak mutaxassis kasbiy kompetentligining asosi bo'lgan kognitiv tayyorlik, marketing savodxonligi, kommunikativ tayyorlik. Bo'lajak mutaxassis kasbiy faoliyatining tuzilishi doirasida kommunikativ tayyorgarlik deganda, kommunikativ texnika va texnologiyalarga ega bo'lish (ijtimoiy aloqalarni o'rnatish va katta va kichik guruhlarda o'zaro aloqada bo'lish qobiliyati), kasbiy muloqot va jamoani boshqarish biznes etikasi asoslarini bilish tushuniladi. Shuningdek, munozara o'tkazish, o'z qarorlarini, ona va chet tillarini

ragʻbatlantirish va himoya qilish qobiliyati, shu jumladan, asosiy va tegishli fanlar va sohalarning konseptual apparati va soʻz boyligini qoʻllash qobiliyatidir. Yuqoridagilarning barchasidan xulosa qilish mumkinki, kommunikativ komponent taʼlim mazmunini oʻzlashtirishga qaratilgan.

Faoliyatli komponent – insonning kasbiy faoliyatni amalga oshirishga tayyorligini, shuningdek, taʼlim faoliyati turlari va talabalar faoliyati (taʼlim va kasbiy, ilmiy va ilmiy-tadqiqot, ijtimoiy-madaniy) integratsiyasi orqali talabalarning kasbiy malakasini shakllantirish usullarini ochib beradi. Faoliyatli komponent talabalarda taʼlim sohasidagi koʻnikma va malakalarni egallashni; bilimlarni amalda qoʻllay olish koʻnikmasini shakllantirishni; mustaqillik va ijodiy faoliyatni rivojlantirishni taʼminlaydi. Faoliyatli komponent quyidagi asosiy qobiliyatlarni oʻz ichiga oladi: axborot koʻnikmalari, kasbiy harakatchanlik va ijodkorlik.

Axborot koʻnikmasi kasbiy faoliyatni rivojlantirishning axborot-kommunikatsiya jihatlariga asoslanadi: axborot oqimlarining turli darajalarida qoʻllaniladigan kommunikativ bilim, koʻnikma va malakalarni shakllantirish darajasi. Axborot koʻnikmasi zamonaviy kompyuter texnologiyalari va dasturlarini yetarli darajada egallashni, internet texnologiyalaridan foydalanish qobiliyatini, axborot texnologiyalari sohasida oʻz-oʻzini oʻqitishni, shuningdek, har qanday darajadagi maʼlumotlar bilan ishlash va uni maxsus dasturiy taʼminot yordamida qayta ishlash qobiliyatini belgilaydi. Ijodkorlik har qanday faoliyatning zarur tarkibiy qismidir va tadqiqot doirasida koʻrib chiqiladi, chunki boʻlajak mutaxassisning asosiy qobiliyati universal kognitiv ijodiy qobiliyat sifatida tushuniladi. Ijodkorlik – gʻoyalar, texnika, texnologiyalar, loyihalarni yaratish, ishlab chiqarish; muammolarga nisbatan sezgirlikni oshirish, bilimlarning nomuvofiqligini aniqlash qobiliyati.



1-rasm. Boʻlajak mutaxassislarning kasbiy faoliyati tuzilishi⁸

⁸ Muallif izlanishlari natijasida shakllantirilgan.

Birinchidan, samarali aqliy faoliyat ong bilan boshqariladi va quyidagilar bilan tartibga solinadi: o'ziga xoslik, stereotiplik, g'oyalarni ishlab chiqarish qobiliyati, ularning yechimlarini topishning nomuvofiqligi, samarali faoliyatda ixtiro va yangilik, shuningdek, ijodkorlik, bilish va faoliyatga ochiqlikda namoyon bo'ladigan qiziquvchanlik bilan ifodalanadigan ijodiy fikrlash. Bu ijodiy fazilatlar yetuk davrda kasbga ijodiy munosabatning natijasi hisoblanadi. Ikkinchidan, ongsiz jarayonlarning g'ayrioddiylik va kechikishiga asoslangan intuitiv ongsiz soha: haqiqatni intuitiv tushunish, yangi tasvirlarni yaratishda ijodiy tushuncha sifatida tasavvur qilish. Uchinchidan, shaxsning yuqori sezgirlikni, ijodiy jarayonda empatiya va hissiy identifikatsiyani o'z ichiga olgan hissiy soha. N.F.Vishnyakova shaxsning unumli kasbiy yo'nalganligi, tafakkurning o'ziga xoslik darajasi, improvizatsiya, yangi faoliyatga ochiqlik va yangilikni o'z ichiga olgan "kasbiy ijodkorlik" tushunchasini kiritadi. Binobarin, shakllanish natijasi – bu vazifalarni ijodiy (nostandart) hal qilish, ijodiy intuitsiyani egallashdir.

Tuzilmaning **motivatsion komponenti** – kasbiy faoliyat motivlarini shakllantirishga, kasbiy muloqotga tayyorlikka va kasbda shaxsning namoyon bo'lishiga, kasbning maqsadini tushunishga qaratilgan. Motivatsion komponent talabning pedagogik faoliyati mazmunini tushunishga qaratilgan; uning qadriyat munosabati va kelajakdagi kasbga kognitiv qiziqishini shakllantirish; zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallash istagi; o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini o'zi anglash zaruratini anglatadi. Kasbiy faoliyat tarkibiy qismlarining mazmuni talabning o'quv jarayonida amalga oshiriladi va motivatsion komponent kasbiy qobiliyatni shakllantirishning integral ko'rsatkichidir. Shu bois motivatsiya ta'riflarini tahlil qilish asosida ikkita yo'nalishni ajratamiz: 1) motivatsiyani tarkibiy pozitsiyalardan, omillar yoki motivlar to'plami sifatida ko'rib chiqish; 2) motivatsiyani statik emas, balki dinamik shakllanish, jarayon, mexanizm sifatida tushunish. Biroq har ikkala holatda ham motivatsiya motivga nisbatan ikkilamchi shakllanish, hodisa sifatida harakat qiladi. Bundan tashqari, ikkinchi holatda, motivatsiyaga allaqachon mavjud motivlarni amalga oshirish vositasi yoki mexanizmi sifatida qaraladi. Kasbiy faoliyat mazmunini va uning tuzilishini aniqlashning uslubiy jihatlari talabalarning kasbiy faoliyatini aniqlashga imkon berdi, ya'ni bo'lajak mutaxassislar kelajakdagi mutaxassis shaxsining integral ko'rinishi sifatida, shu jumladan, o'qitish jarayonida olingan asosiy komponentlar (kognitiv tayyorgarlik, moliyaviy savodxonligi, kommunikativ tayyorlik, axborot qobiliyatlari, ijodkorlik, kasbiy harakatchanlik) yordamida kasbiy faoliyatning asosiy vazifalarini bajarishga tayyorlik qobiliyati rivojlanadi. Shunday qilib aytish mumkinki, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatlari tarkibiga o'quv jarayonida olingan quyidagi asosiy qobiliyatlar kiradi: kognitiv tayyorlik (asosiy umumiy kasbiy bilim, ko'nikma va qobiliyatlar; faoliyat darajasida yangi bilimlarni o'zlashtirish qobiliyati); moliyaviy savodxonligi (ta'lim marketingi sohasidagi bilimlarning integral darajasi, iqtisodiy jarayonlar va o'zgarishlar asoslari, ta'lim faoliyati bilan bog'liq moliyaviy ma'lumotlarini tahlil qilish qobiliyati); kommunikativ tayyorlik (kommunikativ texnika va texnologiyaga ega bo'lish; katta va kichik guruhlarda aloqalarni o'rnatish va o'zaro hamkorlik qilish

qobiliyati; kasbiy aloqa va jamoani boshqarishning biznes etikasi asoslarini bilish; munozara o'tkazish, o'z qarorlarini rag'batlantirish va himoya qilish qobiliyati; ona va chet tillarini, shu jumladan, asosiy va tegishli fanlar va tarmoqlarning konseptual apparati va lug'atini qo'llash qobiliyati); axborot ko'nikmalari (kompyuter savodxonligi; kasbiy vazifalarni hal qilish uchun zarur dasturlarga ega bo'lish; axborot texnologiyalaridan foydalanish qobiliyati, yordamchi texnik vositalar (foto, video, audio va boshqalar)dan foydalanish; ijodkorlik (samarali fikrlash faoliyati; vazifalarni nostandart hal qilish; fikrlashning o'ziga xosligi; ijodiy sezgiga ega bo'lish); kasbiy harakatchanlik (kasbiy sharoitlarda moslashuvchan yo'nalish, ta'lim tiziminining rivojlanish tendensiyalari va asosiy yo'nalishlarini tushunish, kelajakdagi kasbiy faoliyatda turli vaziyatlarga yuqori moslashuvchanlik).


Pedagogik tizimlarni modellashtirish zamonaviy pedagogikaning muhim vazifalaridan biridir, bunda pedagogikaning ilg'or nazariy g'oyalariga mos keladigan yangi innovatsion texnologiyalarni loyihalash va joriy etishning ahamiyati oshadi. Pedagogik modellashtirish juda qisqa vaqt ichida zamonaviy mutaxassisni – mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishga qodir mutaxassisni tayyorlashga imkon beradi.

Kasbiy faoliyat professional mutaxassisga mehnat bozoridagi o'zgaruvchan sharoitlarga moslashishga imkon beradi, shuningdek, kasbiy haqiqatning turli sohalarida o'zini o'zi anglashga sharoit yaratadi.

